

TILLAR — DUNYOGA YETAKLAR: XORIJIY TILLARNI BILISH O‘ZBEKISTON YOSHLARI UCHUN QANCHALIK MUHIM?



Ilhomjon Madaminovich TUXTASINOV

Pedagogika fanlari doktori, professor

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori

Bugungi Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning har bir jabhasida islohotlar kuzatilmoqda va bu islohotlar har birimizni, xususan, yoshlarni yangicha dunyoqarashga, yangicha fikrlashga undamoqda. Bugungi yosh avlod kechagi yoshlardan tubdan farq qiladi. Xorijiy tillarni bilish zamonaviy dunyoda, O‘zbekiston yoshlari uchun global muloqot va muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida yoshlari haqida: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, — degan fikrlarni bildirgan edi.

Bugungi globallashuv, madaniyat va qadriyatlar, milliy o‘zlik tushunchalari orasidagi masofalar kundan-kunga qisqarib borayotgan bir paytda, O‘zbekiston yoshlari uchun jahonga integratsiyalashishda til omili muhim va asosiy faktor vazifasini bajarmoqda. Chet tillarini bilmagan yoshlarni xalqaro biznes, ilm-fan, siyosat, iqtisodiyot yoki axborot va kommunikatsiya tarmog‘ida joy yo‘q ekanligini anglamoqda.

Darhaqiqat, “Til bilgan el biladi” degan ota-bobolar naqliga binoan yurtimizning ertangi kuni, uning farovonligini ta’minalash uchun yoshlarning bilim va salohiyatini oshirish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish oldimizda turgan asosiy masalalardan biridir.

O‘zbekistonda yoshlarning xorijiy tillarda erkin muloqot qila olishi odatiy holga aylangani, albatta, quvonarli hol. Bugungi natijalarga yurtboshimiz tomonidan uzlucksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini yuqori savyada o‘qitilishiga e’tibor qaratilayotgani hamda yoshlarga xorijiy tillarni o‘rganishiga yarasha motivatsiyalarning joriy qilinganligi muhim omil bo‘lyapti, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ertangi kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishiga ta’sir etuvchi omillar va o‘ziga xos motivatsiyasi haqida quyidagilarni keltirish mumkin:

birinchidan, bugungi yuqori texnologiyalar va raqamlashtirish davrida O‘zbekistonning dunyo hamjamiyati bilan teng integratsiyaga kirishi natijasida hayotimizga kirib kelayotgan yangi texnologiyalar yoshlarni o‘ziga jalb etadi. Bu texnologiyalarning tili ingliz, xitoy va boshqa xorijiy tillarda bo‘lgani sababli ularni tushunish, keng foydalanish natijasida xorijiy tilga nisbatan qiziqish va motivatsiya ortib bormoqda.

Ikkinchidan, hukumatimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlab, ularni oliy ma’lumotli bo‘lishi uchun yetarli sharoitlar yaratib berilmoqda. Qaysi oliyogohga kirishidan

qat'i nazar xorijiy til bo'yicha **B2** darajada til sertifikatiga ega bo'lsa, xorijiy tildan imtihon ballari 100% imtiyozli qilib qo'shib berilmoqda. Bu esa ularga qolgan fanlardan yaxshiroq tayyorlarlik ko'rishga imkoniyat yaratmoqda.

IELTS kabi xalqaro e'tirof etilgan til bilish imtihonlarida 7.0 va undan yuqori ball olgan yoshlarning imtihon pullari davlat tomonidan kompensatsiya qilib berilishi yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishida hukumatimiz tomonidan berilgan e'tibor va imkoniyatning yaqqol namunasidir. Bugungi kunda ushbu ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yoshlarning soni 10 ming nafardan oshgan va ularga davlat tomonidan 20,4 mlrd. so'm to'lab berilgan. Bundan maqsad til bilish bo'yicha bilimdon yoshlarni kashf etish va dunyo mehnat bozoriga raqobatbardosh yuksak bilimga ega kadrlarni tayyorlash hisoblanadi.

Yana bir imkoniyat, yoshlarning xorijda ta'lim olishlari uchun sharoit yaratish, mutaxassislarini xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etilgan. Ma'lumki, ushbu tanlovda ishtirok etish uchun asosiy shartlardan biri ham chet tilidan bilim darajasini belgilovchi amaldagi milliy (CEFR) yoki xalqaro sertifikatga (IELTS, TOEFL, DELF kabi) ega bo'lish. Ushbu imkoniyatdan foydalanayotgan minglab yoshlar har yili rivojlangan xorijiy OTMLarda bakalavr yoki magistraturada o'qib, yaxshi kasb egalari bo'lib qaytishmoqda. Bu kabi yoshlarning fikricha, chet tilini bilish ularning nafaqat dunyoqarashini kengaytiradi, balki dunyoga chiqishlariga yo'l ochib berayotgan kalit hisoblanadi.

Kechagi kunga e'tibor bilan qarasak, ilgari xorijiy tillar 5-sinfdan boshlab o'qitilgan bo'lsa, yangi davr o'quvchilari bunday imkoniyatga maktab ostonasiga qadam qo'yishidanoq ega bo'lmoqda. Xorijiy til asosan, ingliz tilini o'qitish 1-sinfdan tatbiq etilgan bo'lib, yoshlarimiz maktab va ta'lim muassasalarini bitirgunga qadar til bilish darajalari **B2** darajada bo'lishi belgilangan. Ta'lim dargohlariga xorijning yetakchi nashriyotlari va metodikalari asosida tajribadan o'tkazilgan va natija bergen yangi avlod darslik va adabiyotlari vositasida ta'lim berilayotgani, chet tili bo'yicha xalqaro mutaxassislarining dars jarayonlariga jalb qilinganligini ko'rish mumkin. Undan tashqari, xorijiy ta'lim tashkilotlari tomonidan yangi loyiha va dasturlar asosida o'qitish uslublariga o'zgartirishlar kiritish, aniqrog'i transformatsiya qilish zamon talabiga aylanib ulgurdi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'rtta maktabning 7–8-sinf o'quvchilari ham hozirgi kunda xorijiy tilni o'rganib, til sertifikatiga ega bo'lishmoqda. Qolaversa, umumiyligi o'rtta ta'lim maktabalarida yoshlarga o'rganayotgan birinchi chet tiliga qo'shimcha ravishda, nemis, fransuz, koreys, ispan, xitoy va yapon tillarini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitish boshlandi. Bu esa yoshlarga maktabni bitirishda ikkita xorijiy tilni o'rganib chiqishlari uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston bugun barcha uchun ochiq davlatga aylangani mamlakatga ko'plab xorijiy investorlar, chet el korxonalarining kirib kelishiga zamin yaratib, ishbilarmonlik o'chog'iga aylanmoqda, xalqaro hamkorliklar natijasida katta investitsiyalar jalb etilmoqda, yoshlarni xorijda ta'lim olishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribalari yurtimizga olib kirilmoqda. Bunday paytda farzandlarimizning til bilishi, xorijliklar bilan tengma-teng muloqot qila olishi, turli tillardan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan xorijiy tillarga tadbirkorlar muzokaralarini tarjima qila olishlari biz uchun o'ta muhim sanaladi.

Ma'lumki, ta'lim tashkilotlarida, o'quv kurslarida ham chet tili deganda aksariyat holatda ingliz tilining o'qitilishi kuzatiladi. Ammo raqamlarga e'tibor qaratilsa, bugungi kunda 10133 ta maktabda ingliz tili, 901 ta maktabda nemis tili, 581 ta maktabda fransuz tili va 47 ta maktabda boshqa chet tillari o'qitilmoqda. Shuningdek, 208 ta maktabda ikkinchi chet tili (*61 ta maktabda fransuz, 106 ta maktabda nemis, 24 ta maktabda koreys, 8 ta maktabda yapon, 5 ta maktabda ingliz, 4 maktabda xitoy tili*) o'qitilishi boshlangan.

Shuningdek, respublikada 23 ta davlat oliy ta'lim muassasasida filologiya va tillarni o'qitish, tarjima nazariyasi va amaliyoti bakalavriat ta'lim yo'nalişlarida ingliz, fransuz, nemis, arab, ispan, koreys, xitoy, yapon, italyan, turk, rus, sharq tillari bo'yicha 53 009

nafar hamda 9 oliygohda qiyosiy tilshunoslik, lингistik tarjimashunoslik, sinxron tarjima bo‘yicha magistratura mutaxassisliklarida 317 nafar kadrlar tayyorlanmoqda.

Filologik yo‘nalishdagi oliygohlarda chet tilidan dars berayotgan 1191 nafar professor-o‘qituvchilardan 1147 nafarida (**96,3 %**), nofilologik yo‘nalishdagi OTMlarda ishlayotgan 4575 nafar chet tili o‘qituvchilarining 2606 nafari (**57,0 %**) C1 darajadagi xalqaro va milliy til bilish sertifikatini qo‘lga kiritishgan.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagি PQ-5117-sон qaroriga asosan respublika bo‘yicha ta’lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini (ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors) ommalashtirish vazifasi ham belgilangan.

Chet tillarini sifatli o‘rgatish bo‘yicha xorijiy ta’lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy til sohiblarini (native speaker) o‘quv jarayoniga jalg etish, xorijda malaka oshirish va stajirovkalar ulushini oshirish kabi vazifalar uzlusiz ta’lim tizimining oldiga qo‘yilgan. Bejizga, 2023–2024-o‘quv yilida umumiy o‘rtta ta’lim maktablariga 500 nafar til sohiblari respublikaning barcha hududlaridagi maktablarga jalg etilib, til muhiti yaratilmadi. Oliy ta’lim muassasalarida ham yuqoridagi vazifalar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan maqsadli ko‘rsatkichlar sifatida belgilab berilgan.

Unga ko‘ra, birgina O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 6 oyda imzolangan memorandum va shartnomalar soni 103 tadan 141 taga oshdi. Xorijiy o‘qituvchilar 23 nafardan 42 nafarga yetkazildi. O‘quv jarayoniga jalg qilingan xorijiy professor-o‘qituvchilar soni 40 nafardan oshdi. Hozirgi kunga qadar Angliya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Finlyandiya, Slovakiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Misr, Jazoir, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Malayziya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston kabi bir qator davlatlarning oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatalgan. Universitet talabalari mazkur mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalarida har yili 6 oylik va bir yillik grantlar asosida ta’lim olib kelishmoqda. Mazkur davlatlar OTMlaring professor-o‘qituvchilari universitetimizda ham faoliyat olib bormoqda. Bu esa xorijiy til sohiblari bilan talabalarimizning xorijiy tillardagi darslarni yanada samarali tashkil etishlariga sabab bo‘lmoqda. Bu kabi yo‘nalishlardagi ishlarni yanada kengaytirish yoshlarimizning o‘z kasbini mukammal egallashlariga yordam beradi.

Shuni alohida e‘tirof etish joizki, O‘zDJTUda ilmiy salohiyatli professor-o‘qituvchilar ulushi 171 nafardan (**19,9 %**) 285 nafarga (**27,9 %**) oshdi, doktoranturaga qabul 2023-yilda 44 nafardan 2024-yilda 61 nafarga oshdi. C1 va C2 darajadagi xalqaro va milliy sertifikatga ega professor-o‘qituvchilar ulushi 2023-yil sentyabrida 592 nafarni (**80 %**) tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib 685 nafarga (**95,4 %**) o‘sgan (+15,4 %). O‘quv yili rejasiga ko‘ra, 388 nafar professor-o‘qituvchilardan 376 nafari (**97 %**), shuningdek, ulardan 70 nafari xorijning yetakchi OTMlarda malakasini oshirdi.

Bugungi kunda universitetimizda bir necha talabalar 2–3-kurs davridayoq chet tilini bilishning **C1** darajadagi sertifikatini qo‘lga kiritmoqda. Bunday talabalar uchun mahalliy qo‘shma ta’lim dasturlarini, ya’ni til + kasb berish yoki ikkita kasb egallashlariga imkoniyat yaratish ustida hamkorlik ishlarni yo‘lga qo‘ymoqdamiz. “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi bilan hamkorlikda chet tilini biladigan yoshlarga bort kuzatuvchisi, styuardessa kasblarini o‘rgatish, Turizm qo‘mitasi bilan esa chet tilini yaxshi biladigan bitiruvchi kurs talabalarini turoperatorlikka tayyorlashni boshlayapmiz.

Yana bir masala borki, globallashuv va faol xalqaro hamkorlik sharoitida kam o‘rganiladigan xorijiy tillarni biladigan malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. O‘zbekistonda shved, yunon, vyetnam, portugal, venger, fin, mongol, bengal, polyak tillari chet tili sifatida o‘qitilmaydi va ulardan foydalanish makoni ham cheklangan. Bugun O‘zbekiston hamma uchun ochiq, xalqaro munosabatlar har kuni kengaymoqda. Shu o‘rinda ba’zida, yuqori darajadagi xorijiy delegatsiyalarning yurtimizga tashrifi jarayonida yoki

mamlakat prezidenti, qolaversa, hukumat delegatsiyasining boshqa davlatlarga tashrifi davomida yuqorida kabi O'zbekistonda o'qitilmaydigan turli xorijiy tillardan tarjimon va mutaxassislar shoshilinch ehtiyoj paydo bo'lib qolishi jamiyatdagi bugunning muammolaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda, O'zbekistonda kam o'rganiladigan xorijiy tillarni o'rganishni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rib chiqilishi ham muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O'zDJTU) 17 ta xorijiy tillarni (*ingliz, nemis, fransuz, ispan, italyan, xitoy, yapon, koreys, arab, malay, golland, fors, hind, indoneziya, rus, turk, grek*) birinchi va ikkinchi chet tili sifatida o'qitib kelayotgan, mutaxassislar tayyorlash uchun kuchli bazaga ega bo'lgan oliy ta'lif muassasasi hisoblansada, ehtiyoj va talab bo'lishi mumkin bo'lgan shved, yunon, vyetnam, portugal, venger, fin, mongol, bengal, polyak, ivrit kabi tillarni to'liq qamrab olmaydi.

Shu o'rinda xorijiy tajribaga e'tibor qaratamiz, masalan, Germaniyada Haydelberg universiteti ko'plab noyob tillarda, jumladan, Islandiya va Katalan tillarida kurslarni taklif qiladi. Ushbu kurslar qisman hukumat tomonidan, qisman esa xususiy fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. AQSHda esa Garvard universitetida Afrika tillarini o'rganish markazi mavjud bo'lib, u Yoruba va Zulu kabi tillarda kurslar taklif qiladi. Markaz yozgi til dasturlari va madaniy almashinuvlarni ham tashkil qiladi. Pekin chet tillar universitetida 67 ta chet tillari o'qitiladi. Ular noyob Yevropa va Osiyo tillarida, jumladan, venger va Islandiya tillarida kurslarni taklif etadi. Universitet o'qituvchi va talabalar almashinuvi bo'yicha xorijiy institutlar bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'ygan. MGIMO — Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutida 53 ta chet tillari, jumladan, shved, yunon, portugal va fin kabi tillarda kurslarni taklif etadi. Ushbu dasturlar ona tilida so'zlashuvchilar va xorijiy mutaxassislar ishtirokida ishlab chiqilgan.

Ushbu fanlarni O'zbekistonda, xususan, O'zDJTUda o'qitishni yo'lga qo'ysa bo'ladi, ammo mazkur fanlarni o'qitilishida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- 1) ushbu tillarga bir martalik ehtiyoj paydo bo'lishi keyinchalik shu maqsadda tayyorlangan kadrlar uchun ish o'rinalining bo'lmaslik ehtimoli;

- 2) o'quv rejada soatlar va o'quv dasturlari yetishmasligi va amaldagi o'quv dasturlari kam o'rganiladigan tillar uchun mavjud emasligi;

- 3) malakali o'qituvchilarning yetishmasligi: mamlakatda bu tillarni o'qitish uchun mutaxassislar yetarli deb bo'lmaydi;

- 4) cheklangan resurslar: cheklangan moliyaviy va moddiy-texnika resurslari yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Taklifimiz esa, kam o'rganiladigan tillarni O'zbekistonda o'qitishni yo'lga qo'yish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- davlatimizning siyosiy hamkorlik strategiyalaridan kelib chiqib, president tashriflari, Tashqi ishlar vazirligi hamda yirik xalqaro forumlar doirasida O'zbekiston uchun strategik hamkor davlatlar tillarini o'qitilishini hukumat bayonnomalari bilan joriy etib borish;

- bunday tillarni o'qitishni joriy etish borasida xorijda o'qitish uchun maqsadli kadrlarni hamkor OTMlarga yuborish (kamida bir yilga, masalan, qardosh tillar ispandan – portugalga, nemisdan – gollandga, xitoydan – vietnamga va hokazo...);

- “El-yurt umidi” jamg‘armasi va davlat grantlari orqali bu yo'nalishdagi kadrlarni tayyorlash jarayonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

- me'yoriy-huquqiy hujjalarga yuqorida ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;

- O'zDJTUda yuqorida sanab o'tilgan tillarni o'qitish kafedrasini tashkil etish yoki ikkinchi chet tillar kafedrasini faoliyatini takomillashtirish;

- o'qitish va o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun xorijiy mutaxassislarini jalb etish;

- xalqaro hamkorlik, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda intensiv kurslar va treninglar tashkil etish.

Bu takliflarning O'zDJTU orqali hayotga tatbiq etilishi O'zbekistonning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishga, noyob tillar bo'yicha yuqori sifatli kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy tillarni bilish bugungi zamонавиy dunyoda, ayniqsa, O'zbekiston yoshlari uchun global muloqot va muvaffaqiyat kalitidir. Bunday xulosaga kelishimizning bir qancha sabablari mavjud va ular quyidagilardan iborat:

- xalqaro imkoniyatlar. Chet tillarni bilish xalqaro ta'lim va kasbiy imkoniyatlarga eshiklarni ochadi. Ingliz, xitoy, rus va boshqa tillarda muloqot qilish qobiliyati yoshlarning ijtimoiy doirasini kengaytiradi hamda xalqaro tashkilot va kompaniyalarda, xorijda ishslash imkoniyatini oshiradi.

• Turizm va mehmondo'stlik. O'zbekiston boy tarix va madaniyatga ega bo'lgan mashhur sayyoqlik maskanidir. Chet tillarni bilish yoshlarga mehmonxona va turizm sohasida ishslash, xorijlik mehmonlar, sayyoqlarga yanada sifatli xizmat ko'rsatish va muloqot qilish orqali mamlakat imijini oshirish imkonini beradi.

• Xalqaro munosabatlar. Ikkinci tilda gapirish qobiliyati yoshlarga xalqaro munosabatlar, savdo va diplomatiya sohalarida boshqa madaniyat va mamlakatlar vakillari bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi.

• Texnologik taraqqiyot. Zamонавиy texnologiyalar va internetning jahon miqyosida rivojlanishi bilan dunyo tobora globallashib bormoqda. Chet tillarni bilish yoshlarga so'nggi tendensiyalardan xabardor bo'lish, ma'lumot almashish va milliy chegaralardan tashqarida professional va shaxsiy aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.

Bularning barchasi O'zbekiston yoshlari uchun chet tillarini bilishning qanchalik muhimligini, shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochayotganini, yoshlarimizning yorqin kelajagini barqaror qura olishiga yordam berishini anglatadi.